

PROBATSIIYA TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING TASHKILIIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

R.Z.Qayumov

IIV profilaktika inspektori

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21933507>

Annotatsiya. Mazkur tezisda probatsiya tizimida psixologik xizmatning tashkiliy va metodologik asoslari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda psixologik xizmatni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari, uning asosiy funksional yo‘nalishlari hamda probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlashdagi ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Xususan, psixologik xizmat faoliyatida individual yondashuv, kompleks reabilitatsiya hamda ilmiy asoslangan modellardan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, psixologik xizmatni samarali tashkil etish orqali shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta‘minlash va retsdiv xulq-atvorni kamaytirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: probatsiya tizimi, psixologik xizmat, tashkiliy asoslar, metodologik yondashuvlar, ijtimoiy moslashuv, reabilitatsiya, retsdiv xulq-atvor, psixologik diagnostika, “xavf–ehtiyoj–moslashuv modeli”, “sifatli (mazmunli) hayotga yo‘naltirilgan reabilitatsiya modeli”, shaxsiy resurslarga asoslangan reabilitatsiya.

Kirish. So‘nggi yillarda probatsiya tizimini takomillashtirish, uni jazolashga yo‘naltirilgan mexanizmdan ijtimoiy reabilitatsiya va profilaktikaga asoslangan tizimga aylantirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonunida probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, ularning huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish hamda jamiyatga qayta integratsiya qilish asosiy vazifalar sifatida belgilangan [1]. Bu esa probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun psixologik xizmatning shaxsning ruhiy holatini barqarorlashtirish, uning ijtimoiy moslashuvini ta‘minlash hamda psixologik muammolarini bartaraf etishdagi muhim o‘rnini belgilab beradi [2]. Mazkur huquqiy asoslar psixologik xizmat faoliyatini institutsional jihatdan tashkil etish va uning metodologik asoslarini shakllantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Bundan tashqari, probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlash tartibini belgilovchi normativ hujjatlarda psixologik ta‘sir choralari qo‘llash, shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish va uning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish zarurligi alohida qayd etilgan [3]. Bu esa psixologik xizmatni nafaqat amaliy, balki ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlar asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, probatsiya tizimida psixologik xizmatning tashkiliy va metodologik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda evidence-based yondashuvlar asosida keng o‘rganilmoqda. Xususan, “xavf–ehtiyoj–moslashuv (RNR) modeli” probatsiya faoliyatining metodologik asoslaridan biri sifatida e‘tirof etilib, unda shaxsning xavf darajasini baholash, kriminogen ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos individual ta‘sir choralari qo‘llash zarurligi asoslanadi [4]. Tadqiqotlar ushbu model asosida ishlab chiqilgan dasturlar retsdiv darajasini kamaytirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda probatsiya tizimida RNR modelini amaliyotga joriy etishda muayyan muammolar mavjudligi ham qayd etiladi. Xususan, ayrim tadqiqotlar probatsiya xodimlari tomonidan risk va ehtiyojlarni baholash natijalari yetarli darajada amaliy qarorlar qabul qilishda qo‘llanilmasligini ko‘rsatadi. Bu esa psixologik xizmatni tashkil etishda metodologik yondashuvlarning to‘liq integratsiyalashmaganligini anglatadi.

Zamonaviy yondashuvlardan yana biri – “sifatli (mazmunli) hayotga yo‘naltirilgan reabilitatsiya modeli (GLM)” bo‘lib, u shaxsning ijobiy resurslarini rivojlantirish orqali ijtimoiy moslashuvni ta‘minlashga qaratilgan. Ushbu model RNR yondashuvini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida qaralib, reabilitatsiya jarayonida shaxsning hayot sifati va subyektiv farovonligini oshirishga alohida e‘tibor qaratadi [5].

Bundan tashqari, probatsiya tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirishda shaxsiy resurslarga asoslangan rehabilitatsiya yondashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijobiy sifatleri va mavjud resurslariga tayanish uning ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi hamda retsidiv xavfini kamaytiradi [11].

Shuningdek, probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar psixologik tayyorgarlik dasturlari probatsiya xodimlarining rehabilitatsion yondashuvlarga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishini ko'rsatadi [6].

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun uning aniq metodologik asoslarini belgilash, zamonaviy ilmiy modellardan foydalanish hamda amaliyot bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-analitik yo'nalishda olib borilib, probatsiya tizimida psixologik xizmatning tashkiliy va metodologik asoslarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida psixologik xizmatning strukturaviy elementlari, uning funksional yo'nalishlari hamda probatsiya amaliyotidagi o'rni kompleks tarzda tahlil qilindi.

Ilmiy izlanishda kontent-tahlil, qiyosiy tahlil va konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, probatsiya tizimida psixologik xizmatni tashkil etish bo'yicha xorijiy tajriba va ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi [8]. Shu bilan birga, psixologik xizmatni tashkil etishda institutsional va individual darajadagi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham o'rganildi [9].

Tadqiqot jarayonida psixologik xizmat faoliyatining asosiy komponentlari — diagnostik, profilaktik, korreksion va rehabilitatsion yo'nalishlar tizimli ravishda modellashtirildi. Ushbu yondashuv probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlashda individual yondashuvni ta'minlash hamda retsidiv xulq-atvorni kamaytirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi [7].

Bundan tashqari, tadqiqot metodologiyasining muhim jihati sifatida psixologik xizmatni tashkil etishda evidence-based yondashuv tamoyillari asos qilib olindi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, psixologik xizmat samaradorligi uning ilmiy asoslangan metodlar va standartlarga tayanib tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir [5].

Natija. Tadqiqot natijasida probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etishning asosiy tashkiliy va metodologik komponentlari aniqlashtirildi. Xususan, psixologik xizmatning samaradorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- ❖ psixologik xizmatni aniq institutsional tuzilma asosida tashkil etish;
- ❖ shaxsning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi diagnostik va differensial yondashuvlarni qo'llash;
- ❖ psixologik ta'sir choralarini ilmiy asoslangan metodlar asosida amalga oshirish;
- ❖ rehabilitatsiya jarayonini ta'minlovchi kompleks (diagnostik–korreksion–rehabilitatsion) tizimni shakllantirish.

Aniqlanishicha, psixologik xizmatni mazkur yo'nalishlarda tizimli tashkil etish probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvini oshirish va retsidiv xulq-atvor xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, metodologik jihatdan asoslangan yondashuvlarning amaliyotga integratsiyasi psixologik xizmat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [8–11].

Muhokama. Olingan natijalar probatsiya tizimida psixologik xizmatni tashkil etish nafaqat tashkiliy choralar, balki ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlar bilan ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Xususan, zamonaviy tadqiqotlarda probatsiya faoliyatining samaradorligi institutsional tashkil etish va individual yondashuvning uyg'unlashuvi bilan belgilanadi [8]. Bu esa psixologik xizmatni tizimli ravishda rejalashtirish va uni aniq strukturaga ega mexanizm sifatida ko'rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda rehabilitatsiya jarayonining samaradorligi shaxsning individual ehtiyojlarini hisobga olish va unga mos psixologik ta'sir choralarini qo'llash bilan bog'liqligi ta'kidlanadi [9]. Bu jihat psixologik xizmat faoliyatida diagnostika va differensial yondashuvning muhimligini yana bir bor ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, psixologik xizmatni tashkil etishda evidence-based yondashuvlardan foydalanish uning natijadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, ilmiy asoslangan metodlar va standartlarni amaliyotga joriy etish psixologik xizmat faoliyatining sifatini oshiradi hamda rehabilitatsiya jarayonining barqarorligini ta'minlaydi [10].

Bundan tashqari, psixologik xizmatning samaradorligi uning kompleks xarakteriga bog‘liq bo‘lib, bunda diagnostik, korreksion va reabilitatsion yo‘nalishlarning o‘zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Shu jihatdan, probatsiya tizimida psixologik xizmatni rivojlantirish uni yagona metodologik tizim asosida tashkil etishni talab etadi.

Umuman, olingan natijalar probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun uning tashkiliy va metodologik asoslarini uyg‘un holda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot probatsiya tizimida psixologik xizmatning tashkiliy va metodologik asoslari uning samaradorligini belgilovchi muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar natijasida psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun aniq institutsional tuzilma, ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlar hamda shaxsga yo‘naltirilgan kompleks tizim zarurligi asoslab berildi.

Shuningdek, psixologik xizmat faoliyatida diagnostik, profilaktik, korreksion va reabilitatsion yo‘nalishlarning o‘zaro integratsiyasi uning natijadorligini ta‘minlovchi asosiy shartlardan biri ekanligi aniqlandi. Mazkur yondashuvlar psixologik xizmatni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida, probatsiya tizimida psixologik xizmatni takomillashtirish, uni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida rivojlantirish hamda evidence-based metodlarni amaliyotga keng joriy etish ijtimoiy moslashuvni ta‘minlash va retsidiv xulq-atvorni kamaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Probatsiya to‘g‘risida” gi Qonuni: O‘RQ-938-son, 2024-yil 7-avgust // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ-989-son, 2024-yil 5-noyabr. – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash” to‘g‘risidagi buyrug‘i, 2025-yil 19-iyul, № 403 // O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2025-yil 20-avgustda 3670-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
4. Andrews, D. A., Bonta, J., & Wormith, J. S. (2011). The Risk-Need-Responsivity (RNR) model: Does adding the Good Lives Model contribute to effective crime prevention? *Criminal Justice and Behavior*, 38(7), 735–755. <https://doi.org/10.1177/0093854811406356>
5. Bourgon, G., & Bonta, J. (2014). Reconsidering the responsivity principle: A way to move forward. *Federal Probation*, 78(2), 3–10.
6. McNeill, F., Farrall, S., Lightowler, C., & Maruna, S. (2012). How and why people stop offending: Discovering desistance. *Institute for Research and Innovation in Social Services*. <https://doi.org/10.13140/RG.2.1.2008.9442>
7. Polaschek, D. L. L. (2012). An appraisal of the risk–need–responsivity model of offender rehabilitation. *Legal and Criminological Psychology*, 17(1), 1–17. <https://doi.org/10.1111/j.2044-8333.2011.02038.x>
8. Raynor, P., & Robinson, G. (2009). Why help offenders? Arguments for rehabilitation as a penal strategy. *European Journal of Probation*, 1(1), 3–20. <https://doi.org/10.1177/206622030900100102>
9. Taxman, F. S. (2014). Second generation of RNR: The importance of systemic responsivity in expanding core principles of responsivity. *Federal Probation*, 78(2), 32–38.
10. Tuncer, A. E., Erdem, G., & de Ruiter, C. (2020). The impact of RNR-based training on probation officers. *Journal of Community Psychology*, 48(3), 921–931. <https://doi.org/10.1002/jcop.22310>
11. Ward, T., & Maruna, S. (2007). *Rehabilitation: Beyond the Risk Paradigm*. London: Routledge.